


I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-dekabrida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 49 520,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yil yanvar-dekabri bilan taqqoslaganda 5,6 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021-yilning yanvar-dekabridagi narxlarga nisbatan 110,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,6 % ga yetdi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
I. YAHM, jami	42 560,2	49 520,8	105,6
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	40 654,2	47 264,0	105,4
mahsulotlarga sof soliqlar	1 906,0	2 256,8	110,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	40 654,2	47 264,0	105,4
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	17 120,6	19 481,4	103,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	9 599,5	11 457,2	109,1
sanoat	6 902,2	8 125,3	110,5
qurilish	2 697,3	3 331,9	105,8
xizmatlar	13 934,1	16 325,4	105,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 610,0	3 291,1	111,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 106,1	2 492,1	112,1
boshqa xizmat tarmoqlari	9 218,0	10 542,2	101,7

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 14 372,6 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 3,4 % ga yuqoridir.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o‘shish sur‘atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,6 % ini tashkil etdi.



Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 41,2 % ni, sanoat tarmog‘i 17,2 % ni, qurilish 7,0 % ni va xizmatlar sohasi 34,6 % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi

(jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,5	95,4
mahsulotlarga sof soliqlar	4,5	4,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	42,1	41,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	23,6	24,2
sanoat	17,0	17,2
qurilish	6,6	7,0
xizmatlar	34,3	34,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,4	7,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,2	5,3
boshqa xizmat tarmoqlari	22,7	22,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)





● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘shish sur‘atlari bilan bog‘liqdir. O‘shish sur‘atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 103,6 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 41,2 %), sanoatda – 110,5 % (17,2 %), qurilishda – 105,8 % (7,0 %), xizmatlar sohasida – 105,1 % ni (34,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘shish sur‘atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 111,5 % (7,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,1 % (5,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,7 % dan (22,3 %) iborat bo‘ldi.


YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘shish sur‘atlari (o‘tgan yilga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i – 1,5 f.p. (2021- yilning yanvar-dekabrida – 0,8 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,7 f.p. (2021- yilning yanvar-dekabrida – 2,5 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-dekabrida – 1,1 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi - 1,6 f.p. (2021- yilning yanvar-dekabrida – 2,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-dekabrida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.


2022- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi

(jamiga nisbatan % da)



2022-yil uchun YAHM deflyatori indeksi 2021-yildagi narxlarga nisbatan 110,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 116,8 % va xizmatlar sohasida – 111,5 % qayd etildi.

2021-2022- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2021-2022- yillarda kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 68,1 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-dekabrda – 69,9 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

